



SHE'RIY TARJIMADA SHAKL VA MAZMUN UYG'UNLIGI

Barno Buranova

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasidotsenti (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Yulduzli tunlar” romanining turkmancha tarjimaga asos bo'lgan nashri (P.Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1981) hamda “Yildizli gijeler” (Sh.Choriev tarjimasida, Turkmaniston, Ashxobod, 1988) “Juldizli tynler” (X.Jumashev, A.Sodiqov tarjimasida, Nukus, 1983) “Звёздные ночи” (Yu.Surovsev tarjimasida, Moskva, 1983, 1988) variantlari ob'ekt sifatida tanlandi. Asosan, roman matnida uchraydigan she'riy parchalarning tarjimada aks etishida erkin tarjima usuliga murojaat qilish natijasida shakl va mazmunni saqlashdagi yutuqlar hamda so'zma-so'z tarjima jarayonida she'riy tizimdagi kamchiliklar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, devon, tarjima tamoyillari, she'riy tizim, shakl va mazmun, muallif uslubi, mutarjim mahorati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются на туркменском переводе романов «Звездные ночи» (П. Кадыров. Звездные ночи. - Ташкент, 1981) «Йылдызлы гежелер» (перевод Ш. Чориева, Туркменистан, Ашхабад, 1988) «Жулдузлы тунлер» (Х.Джумашев, перевод А.Содикова, Нукус, 1983) «Звездная ночь» (перевод Ю.Суровцева, Москва, 1983, 1988) варианты были выбраны в качестве объектов. В основном в переводе поэтических фрагментов, встречающихся в тексте романа, в результате применения метода вольного перевода выявлены достижения в сохранении формы и содержания и недостатки поэтической системы в процессе дословного перевода.

Ключевые слова: художественный перевод, деван, принципы перевода, поэтическая система, форма и содержание, авторский стиль, переводчикское мастерство.

Abstract: This article is based on the Turkmen translation of the novel "Starry Nights" (P. Kadirov. *Starry Nights*. - Tashkent, 1981) and "Starry Nights" (translated by Sh. Choriev, Turkmenistan, Ashgabat, 1988) "Starry Nights" (X.Jumashev, translated by A. Sodikov, Nukus, 1983) "Starry night" (translated by Yu. Surovsev, Moscow, 1983, 1988) variants were selected as objects. Basically, in the translation of the poetic fragments found in the text of the novel, as a result of applying the free translation method, the achievements in preserving the form and content and the shortcomings of the poetic system in the process of word-for-word translation are shown.

Key words: literary translation, devan, principles of translation, poetic system, form and content, author's style, translator's skill.

Jahon adabiyotshunosligida badiiy tarjima, tarjima nazariyasi va amaliyoti, tarjima muammolari, uning umumfilologik masalalari, badiiy tarjimada asliyat matn badiiyatini qayta yaratish, tarixiy asarlar tarjimasida tarixiy-milliy koloritni saqlash tamoyillari va transformatsion jarayonlarga alohida diqqat qaratilmoqda. Ayni





ma'noda "Badiiy tarjimada lirik tasvir uyg'unligi" deb nomlangan maqolamizda O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanining turkman tilidagi tarjimasini (tarjimon Shodurdi Choriev) asliyat bilan qiyoslab, asosan, roman matnida uchraydigan she'riy parchalarning tarjimada aks etishida erkin tarjima usuliga murojaat qilish natijasida shakl va mazmuni saqlashdagi yutuqlar hamda so'zma-so'z tarjima jarayonida she'riy tizimdagi kamchiliklar, Shodurdi Chorievning she'riy parchalarni turkmanchallashtirishdagi mahorati, lirik tasvir hamda talqinga individual yondashuvi, rus tarjimoni Yu.Surovtsev, qoraqalpoq mutarjimlari H.Jumashev, A.Sodiqovlarga nisbatan tarjimada asliyat badiiy mohiyatini to'la yoritish, muallif uslubini keng rakursda teran aks ettirishdagi mahorati va tarjima prinsiplarini tadqiq etishdan iborat.

Mazkur maqolada "Yulduzli tunlar" romanining turkmancha tarjimaga asos bo'lgan nashri (P.Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1981) hamda "Yildizli gijeler" (Sh.Choriev tarjimasida, Turkmaniston, Ashxobod, 1988) "Juldizli tynler" (X.Jumashev, A.Sodiqov tarjimasida, Nukus, 1983) "Звёздные ночи" (Yu.Surovtsev tarjimasida, Moskva, 1983, 1988) variantlari ob'ekt sifatida tanlandi.

Alohida ta'kidlash joizki, turkman tarjimoni asosan she'riy parchalar tarjimasida erkin tarjima yo'nalishiga murojaat qiladi. O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillari Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy va Bobur she'riyati turkman tiliga tarjima qilingan. 1.[<https://xs.uz> > uzkr > post > ali. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot>] Ammo "Yulduzli tunlar" romanida uchraydigan Bobur she'riyatidan olingan parchalar Shodurdi Choriev mazkur asar tarjimasida ustida ishlayotgan paytda turkman tiliga to'la tarjima qilinmagan edi. Bobur lirikasi, asosan, mustaqillik davrida turkman tiliga o'girildi. Shuning uchun Shodurdi Choriev roman matniga kirgan Boburning she'riy parchalarini o'zi tarjima qilishga majbur bo'lgan. Ta'kidlash o'rinliki, 2005 yil Turkmaniston Milliy madaniyati markaziga qarashli "Meros" fondida Rahimmammet Kurenov tomonidan Bobur qalamiga mansub 119 ta g'azal, 205 ta ruboiy, 8 ta masnaviy, bir nechta qit'a, tuyuq, tugallanmagan g'azallari, shohbaytlar hamda "Risolai Volidiya" (forsiydan tarjima)dan iborat "Devon" 2000 nusxada nashr etilgan.2.[Zahyreddin Muhammet Babyr. Diwan, A.: Turkmenistanyň milli medeniýet «Miras» merkezi, 2005, 296s.]





Biz “Devon”dan o‘rin olgan ko‘pgina she‘riy tarjimalarni roman matnida ham uchratdik va Shodurdi Choriev she‘riy tarjimalarda asosan erkin tarjima tamoyiliga tayangan holda, mazmuni biroz soddalashtirib berganining guvohi bo‘ldik. Asliyatda:

Muyassar bo‘lmasa boshimni qo‘ymoqlik oyog‘iga

Boshimni olib, ey Bobur, oyoq yetguncha ketgaymen.” 3.[P.Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1981, 152-b. Keyingi o‘rinlarda berilgan she‘riy parchalar ham aynan shu manbadan olingani bois faqat sahifa ko‘rsatiladi.]

Turkmanchada:

Башым го́ймак аягыңа гер миессер болмаса

Башың алып, эй, Бабыр илден-иле гитгей сен”. (Shodurdi Choriev tarjimasida 165)

Devon tarjimasida: Miýesser bolmasa başymy goýmaklyk aýagyna,

Başymy alyp, eý, Babyr, aýak ýetinçä gitgeý men. (62) . 4.[Zahyreddin Muhammet Babyr. Diwan, A.: Türkmenistanyň milli medeniýet «Miras» merkezi, 2005, 296s.]

Biz bu qiyoslarimiz orqali turkmancha “Devon”da berilgan g‘azal, ruboiy, qit‘a kabilar tarjimasida badiiylikdan yiroq, shunchaki fonetik jihatdan moslashtirib berilgan degan fikrdan mutlaqo yiroqmiz. Negaki, ayni shu yo‘nalishda turkman kitobxonlari ham Zahiriddin Muhammad Boburning turkiy tilda bitgan ash‘orlaridan aynan shu davr ruhini, mumtoz adabiyot ohanrabosini, turkiy tilning mushtarak jihatlarini his qilgan holda bahramand bo‘lishadi.

“Qolmadi hurmat ahli olamda” deb boshlanuvchi qit‘ani Shodurdi Choriev favqulodda nozik tasvir va quyma qoliplar bilan tarjima qilgan. Ayni shu qit‘aning devonda berilishini qiyoslasak, Shodurdi Choriev asosan o‘z ichki imkoniyatlariga tayanib, she‘r ma‘nosini umumlashtirgan holda shoirona qarash va iste‘dod bilan talqin qilganini kuzatdik: “Devon” tarjimasida esa hech o‘zgarishsiz faqat fonetik tamoyil asosida o‘girilgan.

Devon tarjimasida: Galmady hormat, ähli älemde,

Elem-u älem ähliden ýuw elik,

Babyr-a iki patyşalykdan,

Ýagşyrak bu zamanda bir beglik. (156) . 5.[Zahyreddin Muhammet Babyr. Diwan, A.: Türkmenistanyň milli medeniýet «Miras» merkezi, 2005, 296s.]



Quyidagi jadval orqali Bobur mazkur qit‘aning asliyatga ne qadar adekvatligini kuzatamiz.

| Asliyatda | Turkmanchad | Ruschada | Qoraqalpoqchad |
|---|--|--|---|
| | a | | a |
| <i>Qolmadi hurmat ahli olamda, Olamu olam ahlidin yuv ilik Bobur, ikki podshohlig‘din Yaxshiro q bu zamonda bir beklík. (160)</i> | <i>Шалар бир-бириге кылмаз хорматы, Бир ша бейлекиге ягыдыр ягы. Бабыр, илде ики шалык боландан Бир беркарар б е з л и к</i> | <i>Надежд ы на людей, прильнувших к трону, -нет! Исчезли верности законы. Бедный свет! Бабур, стань лучше захудалым беком. Двух шахов под одной короной хуже нет!” (С.144)</i> | <i>Қалмады бул дүняда хеш сыйласық! Сондаяқ бир-биреўге исенимде... Қуўырмақ патша болып жасағаннан Ыразы болар едим бекликке (169)</i> |

Albatta, bir qarashda qit‘adagi qofiyalanish tizimi (ilik-beklik) hamda vazn shakllarining tarjimada (нет-свет) o‘zgarishi tabiiy hol. Zero, “Asl nusxadagi ikki qofiyadosh so‘zga tarjimada xuddi shunday qofiyadosh so‘zning mos tushishi, o‘sha so‘zlarga ular bilan birikib keladigan bo‘lak so‘zlarning ma‘no tomondan aynan to‘g‘ri kelishi amri mahol”. 6.[Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: 1980. – B. 333.]

E‘tiborga sazovor tomoni shundaki, tarjimon Yu.Surovsev asliyatdagi oddiygina Bobur, ikki podshohlig‘din misrasini rus tilida hissiy-tasviriy jihatdan bo‘yoqdor ohangda o‘ziga xos ibora bilan, ya‘ni: *Двух шахов под одной короной хуже нет! – Битта тој ostida ikkita podshoh murosa qila olmaydi (O‘zbek tilida: Dunyo har qancha keng bo‘lsa-da ikki podshohga torlik qiladi degan varianti ham bor) mazmunida berib shakliy go‘zallikni saqlab qolgan bo‘lsa, Yaxshiroq bu zamonda bir beklík misrasini*



esa Babur, стань лучше захудалым беком – bitta urug' beki mazmunida berib asliyatdagi o'sha davrga xos milliy ruhni, tarix va zamon tasvirini, ziddiyatlarini aks ettira olgan.

Jadvaldagi turkmancha tarjimadan ko'rinib turibdiki, mutarjim Sh.Choriev ham she'riy tarjimada vazn va qofiya (ягы- говы) tizimini saqlagan holda milliy koloritni aks ettira olgan. Asliyatdagi "Olamu olam ahlidin yuv ilik" ya'ni dunyo ahlidan umid uzish, qo'lni yuvib qo'ltiqqa urish mazmunidagi irsoli masal (maqol va ibora qo'llash) san'ati bilan berilgan misra mazmuni tamomila o'zgartirilib, tarjimada go'yo yangitdan kashf qilingan: *Бир ша бейлекиге ягыдыр ягы*. Podshohlikda doimo bir tomon ikkinchi tarafga dushmanlik qiladi mazmunida berilib kitobxon Bobur mirzoning toju taxt tufayli yoshligidan boshiga tushgan musibatlaridan ruhan azobga tushishiga guvoh bo'ladi, uning qalb bahsi bilan yaqindan tanishadi. Xuddi ruscha tarjimadagi kabi turkmancha tarjimada ham asliyatdagi bir beklik birikmasi «berkarar beklik» o'xshatishli birikma (epitet) orqali o'girilib shoir aytmoqchi bo'lgan asosiy maqsadni yanayam ta'sirchan tarzda yetkazgan. "Aslida adabiy-nazariy jihatdan qaraganda har qanday badiiy asar mazmunidagi yangilanish shakliy izlanishlarga olib keladi. Bir-biriga genetik yaqin millatlar adabiyoti orasidagi bu hodisaning poetik qonuniyatlarini o'rganishda individual milliy o'ziga xoslik va ularning ildizlariga ham diqqat qaratilishi lozim." 7.[Gaylieva O. Mustaqillik davri turkiy xalqlar lirikasida shakliy izlanishlar va ularning tipologiyasi (o'zbek, qoraqalpoq va turkman lirikasi misolida): Filol.fan.d-ri (DSc) diss. avtoref. – Nukus, 2019. – 16 b.]

Ta'kidlash joizki, ushbu qit'aning yozilish davri Boburning o'rgimchak to'ridek kundan kunga chirmashib Andijondagi hokimiyatiga ko'z tikkan Ahmad Tanbal va Ali Do'stbeklarning kuchayib borayotgan fitnalariga barham berish uchun, bu borada ukasi Jahongir Mirzo bilan murosa qilib, Shayboniyxondan oldin Sulton Ali Mirzoga qarshi Samarqandni egallash uchun kurashga tayyorgarlik ko'rayotgan, toju taxt uchun ziddiyatli kurashlarining endi boshlangan davriga to'g'ri keladi. Demak, Bobur o'zini bu vaqtda umuman qo'g'irchoq podshoh deb hisoblamagan, aksincha asliyatda aytilmoqchi bo'lgan fikr lirik qahramonning toju taxt uchun kurashlardan bezgani, keng jahon hatto ikkita podshohga ham torlik qilishi (ukasi Jahongir mirzoning xiyonati), saltanat, toju taxt uchun beomon kurashlardan ko'ra tinch va osuda hayotni qo'msab yozgani haqida ekanligiga e'tibor qilsak, qoraqalpoq mutarjimplari bu borada biroz xatoga yo'l qo'yishganini his etish mumkin. Negaki, "qo'g'irchoq podshoh"





birikmasi Javohirlar bilan ta'bir bilan aytganda “Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan” Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvi, hokimiyat uchun kurash faoliyati va shaxsiyatiga umuman mos emas, bizningcha. Shu boisdan mazkur misrani qoraqalpoq tilida kitobxon quyidagi mazmunda o‘qisa, Bobur mirzo aytmoqchi bo‘lgan mazmuniga mos tushar edi.

Қалмады бул дүняда хеш сыйласық!

Сондаяқ бир-биреўге исенимде...

Сыймас екен дуньяға еки патшалық

Соннан ыразы болар едим бекликке

Umuman, turkman tarjimoni asosan she'riy parchalar tarjimasida erkin tarjima yo'nalishiga murojaat qiladi. Ruscha va qoraqalpoqcha tarjimada esa aksariyat hollarda so'zma-so'z tarjima usuli ustunlik qiladi. Aslida, “Tarjimada so'zni emas, ma'noni berish muhim. Shuning uchun so'zma-so'z tarjimadan qochishga da'vat qilinadi. Lekin ba'zan so'zma-so'z tarjima qilish imkoniyati ham mavjud bo'ladi, ya'ni asliyat – aynan so'zma-so'z tarjima tiliga ko'chadi. Bunday imkoniyatdan foydalanish kerak. Chunki so'zma-so'z tarjima esa muayyan hollarda qonuniy hodisadir. Erkin tarjimada esa muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi.” 8[Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari . – T.: 2014. – B. 160-163.]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://xs.uz › uzkr › post › ali. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot>](https://xs.uz › uzkr › post › ali. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot)
2. Zahiriddin Muhammad Babur. Diwan, A.: Türkmenistanyň milli medeniýet «Miras» merkezi, 2005, 296s.
3. P.Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1981. –B 152
4. Zahiriddin Muhammad Babur. Diwan, A.: Türkmenistanyň milli medeniýet «Miras» merkezi, 2005, 296s.
5. Zahiriddin Muhammad Babur. Diwan, A.: Türkmenistanyň milli medeniýet «Miras» merkezi, 2005, 296s
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: 1980. – B. 333
7. Gaylieva O. Mustaqillik davri turkiy xalqlar lirikasida shakliy izlanishlar va ularning tipologiyasi (o'zbek, qoraqalpoq va turkman lirikasi misolida): Filol.fan.d-ri (DSc) diss. avtoref. – Nukus, 2019. – 16 b
8. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari . – T.: 2014. – B. 160-163
9. B Buranova The Modulation and Generalization Method in the Process of Translation from Related Languages / International Journal of Multicultural and





Multireligious Understanding

<https://ijmmu.com/index.php/ijmmu/article/view/4916/0>

10. Мирзаева, Н. (2023). REWRITING-МАТНЛАРНИ САМАРАЛИ ҚАЙТА ИШЛАШ ВА ЯРАТИШ УСУЛИ СИФАТИДА. Interpretation and researches, 1(15).
11. Yakubova, F. (2023). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING OF CROSS-CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS IN INNOVATIVE EDUCATION APPROACH. Science and innovation, 2(B2), 669-679.
12. Shukurova, G. SCIENTIFIC HERITAGE AND STYLISTIC ORIGINALITY OF THE CRITIC. heart, 1, 201.
13. Abdukaharovna, M. N., & Anvarovna, Y. F. (2021). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CHILDREN'S PUBLICATIONS IN THE PRESS. Восточно-европейский научный журнал, (3-4 (67)), 59-63.
14. Мирзаева, Н. А. CHILDREN'S TOPIC IN THE JADID PRESS.
15. Anvarovna, Y. F. (2022). THE USE OF SYNONYMS IN THE POETRY OF ERKIN VAKHIDOV. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(3), 324-327.
16. Мирзаева, Н. А. (2023). ДЕТСКАЯ ПРЕССА КАК ВИД СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ. In MODERN SCIENTIFIC RESEARCH (pp. 66-68).

